


O'rta va yuqori paleolit davri xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'plab tosh qurollar majmuasi topildi

O'zbekistonning sharqiy qismidagi G'arbiy Tyan-Shan tog'lari oralig'idagi Chotqol tog'lari hududida so'ngi yillarda, Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limi Arxeologiya va etnografiya instituti, Polshaning Varshava universiteti arxeologiya fakulteti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan xalqaro hamkorlik asosida arxeologik dala qidiruv tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Ushbu izlanishlarda Polshaning Varshava universiteti arxeologiya fakulteti xodimlaridan Małgorzata Kot, Piotr Moska, Michał Leloch, Karol Szymczak, Rossiyaning Novosibirsk, Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir filiali Arxeologiya va etnografiya instituti xodimlaridan Konstantin Povlenok, Sergey Kogay, Milliy arxeologiya markazi xodimlaridan Muxiddin Xo'janazarov, Azbiddin Xolmatov va G'ayratxon Muxtarov ishtirok etdilar hamda ular tomonidan Ohangaron daryosi o'rta oqimi, o'ng sohilida joylashgan yangi paleolit yodgorligi, "Ko'ksaroy 2" manzili aniqlandi.

Tadqiqotlar natijasida o'rta va yuqori paleolit davri xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'plab tosh qurollar majmuasi qo'lga kiritildi.



Tuproq namunalari tahlili asosida "Ko'ksaroy 2" ning yoshi 70-20 ming yilliklarni o'z ichiga olganligi aniqlandi.

Ushbu yodgorlik O'rta Osiyoning o'rta paleolitdan yuqori paleolitga o'tish davriga daxldor munozarali masalalarni o'rtaga tashlamoqda.

Izlanishlar natijalari xorijiy hamkorlar bilan hammualliflikdagi dunyoning eng nufuzli jurnalidan biri hisoblangan “Antiquity” da batafsil yoritildi.

Maqolaning to’liq matni bilan quyida tanishish mumkin:

<https://www.cambridge.org/core/journals/antiquity/article/new-evidence-for-mountain-palaeolithic-human-occupation-in-the-western-tian-shan-piedmonts-eastern-uzbekistan/E4DBB182B9ADE4E149B7D6CF3CD0D7BF#article>